

TURLI LINGVOMADANIY MUHITLARDA “QADAH SO‘Z”LARNING IJTIMOIY ME‘YORLASHISHI

Azizova Mohinur Muzaffarjon qizi

Qo‘qon davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turli tillarda o‘ziga xos tarzda ifodalanadigan “qadah so‘z”lar haqida fikrlar bayon qilingan. Shuningdek, maqolada qadah so‘zlarning turli millatlarda turlicha ifodalanishi, bu konseptlarning millatning o‘ziga xos an‘anasi, stereotiplarini namoyon eta olishini ko‘rsatib bergan.*

Kalit so‘zlar: *konsept, lingvokulturologiya, madaniyat, tilshunoslik, matn me‘yor, “qadah so‘zlar”*

Аннотация: *В данной статье изложены мысли о «словах», которые выражаются в разных языках уникальным образом. Также в статье показано, что слова «стакан» выражаются по-разному у разных народов, что эти понятия могут отражать уникальные традиции и стереотипы нации.*

Ключевые слова: *концепт, лингвокультурология, культура лингвистика, текстовая норма, «стакан слов».*

Abstract: *In this article, thoughts are expressed about "words" that are expressed in different languages in a unique way. Also, the article shows that the words "glass" are expressed differently in different nations, that these concepts can show the unique traditions and stereotypes of the nation.*

Key words: *concept, linguoculturology, culture, linguistics, text norm, "glass of words"*

Ritorika nazariyotchilari ritorik janrlarni tasnif qilishda Aristotelning muloqot sferasiga ko‘ra “maslaxat, sud va epideyktik” turlarga ajratadi [1.347]. Ammo muloqotning turli-tumanligi ritorik janrlarning bunday qadimiy tasnifi talabga javob bermay qolganligini e‘tirof etadilar. Jumladan, N.N.Koxtev va boshqa zamonaviy olimlar bu tasnifga yana akademik, sotsial-siyosiy, ma‘naviy ritorik janrlarni qo‘shadilar [2.207]. A.K.Mixalskaya va T.V.Matveevalar esa maishiy ritorikani o‘ziga xos xususiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydilar [3.496]. P. Soper nutqning umumiy maqsadi qilib “axborot berish, targ‘ibot qilish va ko‘ngilni ochish” deb belgilaydi [4.448]. Shunga ko‘ra ko‘ngilni ochishga qaratilgan nutq ishontirish, harakatga solish, rag‘batlantirish vazifalarini bajaradi.

Demak, ritorik janrlardan biri epideyktik janrlardir, bu janr boshqa turlariga ko‘ra muloqotda faol ishlatiladi. Epideyktik nutq - bu tantanali nutq, u yubileylarda, boshqa tantanali yig‘ilishlarda ishlatiladi. Bunday tantanali yig‘ilishlarda nutq rasmiy va norasmiy, maishiy turlarga bo‘linadi. Rasmiy vaziyatlarga davlat va mutaxassislik bayramlari, tantanali tadbirlar (festival, konferentsiya, ko‘rgazma, sport bayramlari, mukofotlarni topshirish va boshqa shu kabi tadbirlar). Norasmiy vaziyatlardagi nutq ruhlantiradigan, ilhomtiradigan nutq bo‘lib, u oilaviy bayramlarda, do‘stona korporativ

yig'ilishlarda ishlatiladi.

“Epideyktik nutqning vazifasi yo maqtash yoki tanbeh berishdir”[5.99]. Ijobiy hissiyotni chaqiruvchi, ruhlantiruvchi nutqlar tabriklarda, minnatdorchilik bildirishda, maslahat berishda, kechirishda, so‘rashishda va qadah so‘zlarda ishlatiladi. Bu nutqiy janrlardagi nutqlar rasmiy vaziyatda (Prezidentning o‘zbek xalqiga yangi yil tabrigi, konferentsiya yoki olimpiada ishtirokchilariga tabrik) va shu bilan birga, norasmiy vaziyatda (to‘y marosimida kelin-kuyovga tilak bildirilgan qadah so‘zlarda yoki yubileylardagi qadah so‘zlar). Bu janrda, ayniqsa, tabrik va tilak nutqida (shu jumladan qadah so‘zlarda ham, chunki qadah so‘zlarda tabrik va tilak mushtarak bo‘ladi) konkret material zarur bo‘ladi, bu materiallar adresatning individual xususiyatlarini aks ettiradi. Funktsional-mazmun jihatdan bunday nutq tipi muammo, voqea rivoji, kulminatsiya, echim tarzida bo‘ladi. Unga hayolij dialog va replika qo‘shilishi mumkin. Bu vaziyatda nutqda turli rivoyat, hadis, adresat hayotiga oid biror voqea keltirish tinglovchilarda qiziqish uyg‘otadi. Bunday holatlarda notiqqlarga oson ko‘rinsa-da, aslida, bu janrda ta‘sirli, mazmunli so‘zlash hammaga ham nasib qilmaydi. Bu orqali so‘zlovchi nutq sxemasini tayyorgarliksiz o‘zlashtirib oladi. M.M.Baxtinning fikriga ko‘ra, bunday janrning tip modelida tematik, kompozitsion va uslubiy birlik mavjud bo‘ladi.

Qadah so‘zlar alohida janrni tashkil qiladi. Qadah so‘zlarning o‘ziga xos xususiyati ularda afsona, rivoyat, qiziqarli voqealarning ishlatilishidir. Demak, qadah so‘zlarning o‘ziga xos belgisi, ularning ta‘sirchan bo‘lishi matnda turli afsona va rivoyatlarning ishlatilishidir. Bular adresat va boshqa tinglovchilarda alohida zavq, huzur bag‘ishlaydi.

Qadah so‘zlar – bu dasturxon atrofida alkogol ichimlikni ichish oldidan tantanali tarzda aytiladigan, ayni vaziyatni ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladigan nutq.

Qadah so‘zlar qisqa va uzun, kulguli va pand-nasixatli, she‘riy va nasriy bo‘lib, ular tug‘ilgan kun, yubiley, mutaxassislik va diniy yoki davlat bayramlarida ishlatiladi.

Qadah so‘zlar, avvalo, ayni vaziyatga mazmunan to‘g‘ri keladigan, uncha uzoq bo‘lmagan (3 minutga qadar), ma’noga ega bo‘lgan, mehmonlarni xursand qiladigan va xotimada qadahlarni ko‘tarishga da‘vat qilinadi.

Odatda qadah so‘zlarda nima uchun – hammaning sog‘ligi uchun yoki ishtirokchilarning birortasining sog‘ligi uchun, muhabbat uchun, omad yoki daromad uchun ekanligi belgilanadi. Ba‘zan to‘g‘ridan-to‘g‘ri maqsad aytiladi – “bizning imkoniyatlarimiz niyatlarimizga to‘g‘ri kelsin”. Norasmiy vaziyatda esa bitta so‘z bilan ifodalash mumkin: Rossiyada “Budem” yoki “Vzdrognem!”, Angliyada “Cheers”, Germaniyada “Prosit” va h.z.

Qadah so‘zning, ya‘ni tost so‘zining etimologiyasi haqida har xil ma‘lumotlar bor. Birinchi ma‘lumotga ko‘ra, qadimgi turkiy so‘z yog‘ochli idish “tostakan” so‘zidan kelib chiqqan. Undan qumis va boshqa ichimliklar ichishdan foydalangan. Ikkinchi ma‘lumotga ko‘ra, ingliz tilidagi qizdirilgan non bo‘lagini bildiradigan “toast” so‘zidan kelib chiqqan. Antik Rimda bayramlarda kambag‘allarga qizdirilgan va mayga botirilgan non tarqatilgan. Yana britaniya an‘anasiga ko‘ra notiqning oldiga stakan

suv bilan qizdirilgan non qo'yilgan [6.1]

Ruslarda qadah so'zlardan foydalanmasdan faqat alkogoliklar ichadi deyiladi. Evropada esa bu retual, ya'ni qadah so'zlarni aytish tantanali tadbirlarda majburiy sanalgan. Rossiyada har xil munosabat tufayli – obu havodan tortib, notatish insonning muvaffaqiyati uchun ham ichiladi.

So'zlovchi qadah so'zini tugatmasdan turib, ichish mumkin emas. Ba'zan sotsial pozitsiyasiga ko'ra biror kishi qadah so'zni inkor qilish mumkin, masalan, mehmonlarning biri uchun, mamlakat yoki siyosiy partiya uchun. Qadah so'zini inkor qilgan kishi idishni nariga surib qo'yib, hamma turganda ham o'rnidan turmaydi. Bu holat esa ko'pincha konfliktning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Qadah so'zlar vaziyatga qarab o'zgarib turadi. Masalan, Buyukbritaniyaning xarbiy-dengiz floti zobitlari birinchi o'rinda dengiz bilan bog'liq biror narsaga ichiladi. Masalan, dushanba kuni "dengizdagi bizning kemalarimiz uchun", seshanba kuni "bizning dengizchilarimiz uchun" kabi. Lekin Rossiyada bunday qadah so'zlarning ketma-ketligi mavjud emas. Ammo birinchi qadah so'zi tantanali yig'ilishning sababchisiga, keyingi navbatda ota-onasiga bag'ishlanadi. Uchinchi qadah so'zi esa yig'ilgan jamoaga bog'liq, bunday vaziyatda ko'proq do'stlar yoki muhabbat uchun, agar dasturxon atrofida xarbiylar yoki o't o'chiruvchilar va shunga o'xshash xafli kasb egalari yig'ilgan bo'lsa, uchinchi navbatda vafot etgan do'stlar yodga olinadi. To'rtinchi qadah so'z esa erkaklar uchun bo'lishi mumkin, undan keyingi qadah so'zlarga har narsa sabab bo'lishi mumkin.

Demak, qadah so'zlar alohida nutqiy janrni tashkil qiladi. Qadah so'zlar – bu dasturxon atrofida alkogol ichimlikni ichish oldidan tantanali tarzda aytiladigan, ayni vaziyatni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladigan nutq. Har bir millatda mavjud bo'lgan afsona, rivoyat, hikmatli va qiziqarli voqealarning ishlatilishi qadah so'zlarning ta'sirchanligini oshiradi va bu janrning o'ziga xos xususiyatini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аристотель. Поэтика. Риторика. — СПб.: Азбука, 2000. — 347 с.
2. Кохтев Н. Н. Риторика. — М.: Просвещение, 1994, —С. 207.
3. Михальская А. К. Основы риторики. — М.: Дрофа, 2001. — 496 с.
4. Сопер П. Основы искусства речи. — Ростов-на-Дону: Феникс, 1999. — 448
5. Аристотель. Поэтика. Риторика. — СПб.: Азбука, 2000. — 99 с
6. Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. Scienceweb academic papers collection.
7. Jamaliddinova, D. M., & Khakimova, Z. M. Reforms of the Education System will Create the Foundation of a New Renaissance in Uzbekistan. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
8. Zhmoliddinova, D. M. (2022). Some Comments on the Vertical and Horizontal Relations of Terms in the Work of Art. Web of Scholars: Multidimensional Research

Journal, 1(5), 145-148.

9. Mirhojiddinova, D., & Jamoliddinova, D. (2022). THE IMPORTANCE OF CRITICAL THINKING IN PRIMARY CLASS EDUCATION SYSTEM. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1117-1119.

10. Jamaliddinova, D. M. (2022). CULTIVATION OF ORAL SPEECH AND THE FORMATION OF THE SKILL OF CREATIVE THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 1081-1087.

11. Isog'aliyevna, Y. S. (2023). Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tili darslarini o'rgatishning lingvistik konseptual asoslari. *Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqotlar jurnali*.

12. Yigitaliyeva, S. (2022). Hayrat-ul abror dostonida so'z ta'rifi. *Scienceweb academic papers collection*.

13. Oripova, K. (2022). Literary Discourse as a Basic Element of Linguocultural Study. *European Multidisciplinary Journal of Modern science*.

14. Oripova, K. (2020). The importance of tongue twisters. *Scienceweb academic papers collection*.

15. Andrew, J. S. (2023). ARTISTIC DISCOURSE AND ANTONYMS IN IT AS A CULTURAL FACTOR. *Open Access Repository*, 9(3), 409-411.

16. Oripova, K. (2023). PROBLEMS IN THE STUDY OF ANTONYMS IN COMPARATIVE LINGUISTICS. *Scienceweb academic papers collection*.

17. Shohida, I., & Shahista, K. (2023). CONCEPTUAL INFORMATION IN LANGUAGES ACTIVATING STRUCTURES. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(03), 56-60.

18. Shoxistaxon, X. (2021). Comparative Analysis of Articles in English and German Languages. *Academicia Globe*, 2(05), 194-196.

19. Xamdamovna, M. Z., & Daughter, A. G. D. S. (2022). THE ROLE OF MODERN PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES, SURPRISING CONNECTIONS BETWEEN ENGLISH AND GERMAN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 490-493.

20. Масодикова, З., & Омонбоева, М. О. (2015). THE EDUCATIONAL IMPORTANCE OF USING PROVERBS IN FOREIGN LANGUAGES TEACHING. *Ученый XXI века*, (12 (13)), 73-75.